




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

YANVAR-DEKABR 2018 YIL


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 14562,7 mlrd.so'mni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 56,9 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi 1140,5 mlrd. so'mni, baliq xo'jaligida 44,7 mlrd. so'mni tashkil qildi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Namangan shaxri (109,2 %), Uychi (106,2 %), Uchqo'rg'on (105,2 %), Pop (101,9 %), Mingbuloq (101,2 %), Norin (101,1 %), Yangiqo'rg'on (101,1 %) tumanlarda kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Yangiqo'rg'on tumanining ulushi 16,9 %ni tashkil etdi va hududlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Chust tumani esa 9,4 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinni egalladi. Eng kam ulush Mingbuloq (5,7 %) va Kosonsoy (5,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hajmi 1332,0 mlrd. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 8062,6 mlrd.so'mni, chorvachilik mahsulotlari 5257,9 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmning 71,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,8 %i fermer xo'jaliklariga, 2,0 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida




Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 8062,6 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 95,8 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 55,4 %ni tashkil qildi.




Hosil yig'imi. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 464,7 ming tonna jami don, shundan 383,2 ming tonna boshoqli don ekinlari ishlab chiqarilib, shu jumladan 382,7 ming tonnasini bug'doy tashkil qildi. 242,7 ming tonna kartoshka etishtirildi (2017 yilga nisbatan 7 %ga kam), 749,5 ming tonna sabzavot (2,1 %ga kam) yig'ib olindi, 71,6 ming tonna poliz ekinlari (1,8 %ga ko'p), 249,3 ming tonna meva va rezavorlar (3,2 %ga ko'p) va 107,8 ming tonna uzum (8,9 %ga kam) etishtirildi.




2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


■ *Bug'doy jami (tonna)*




■ *Kartoshka (tonna)*



■ *Sabzavotlar jami (tonna)*




■ *Poliz jami (tonna)*



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan					
			Fermar xo'jaliklari		Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	O'sish sur'ati, %	tonna	O'sish sur'ati, %	tonna	O'sish sur'ati, %	tonna	O'sish sur'ati, %
Don jami	464680	85.1	349441	81.2	110845	99.1	4393	122.1
shundan boshqali don	383163	82.1	323363	80.6	56145	89.1	3655	124.0
shu jamladan bug'doy	382685	82.0	322885	80.6	56145	89.1	3655	124.9
Kartoshka	242661	93.0	30636	53.1	211805	104.3	220	91.3
Sabzavot	749483	97.9	119843	79.2	611093	103.2	18547	84.0
Poliz	71567	101.8	18302	98.1	53137	104.1	128	21.7
Meva va rezavorlar	249310	103.2	83310	97.1	162592	105.9	3408	153.1
Uzum	107769	91.1	32615	68.1	75126	106.7	28	106.7



Chorvachilik




2018 yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 5257,9 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 104,6 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarininzg ulushi 39,5 %ni tashkil etdi.

2019 yilning 1 yanvar holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,2 %ga (jami 703,2 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 103,5 %ga (224,3 ming bosh), qo'y va echkilar 106,1 %ga (759,5 ming bosh), otlar 96,6 %ga (6447 bosh), parrandalar 108,1 %ga (5333.8 ming boshga) ko'paydi.


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda tirik vazn hisobida 140,3 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,1 %ga ko'p), 678,1 ming tonna sut (1,9 %ga ko'p), 526,7 mln. dona tuxum (7,9 %ga ko'p), 1,6 ming tonna jun (11,2 %ga kam), 1,2 ming tonna asal (1,3 %ga ko'p), 5,2 ming tonna baliq (0,2 %ga ko'p), 1498,5 tonna pilla (2,5 marta ko'p) ishlab chiqarildi.

Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik baliqchilik mahsulotlari hududlar kesimida

■ *Go'sht(tonna)*




■ *Sut (tonna)*






■ *Tuxum (ming dona)*




■ *Baliq (tonna)*



Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 702,3 ming boshga, shu jumladan sigirlar 224,3 ming boshga, qo'y va echkilar 759,5 ming boshga, parrandalar 5333,8 ming boshga yetdi. 2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 8,4 ming boshga (1,2 %ga), shu jumladan sigirlar 7,6 ming boshga (7,6 %ga), qo'y va echkilar 43,6 ming boshga (6,1 %ga), parrandalar 399,1 ming boshga (8,1 %ga) ko'paydi.


Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi




2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 3,5 %i fermer xo'jaliklari, 95,6 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, 0,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 3,3 %i fermer xo'jaliklariga, 96,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 40,8 %i fermer xo'jaliklariga, 36,0 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 23,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Qoramol va parrandalar bosh soni hududlar kesimida 2019 yil 1 yanvar holatiga


■ *Yirik shoxli qora mol (bosh)*




■ *Shu jumladan sigirlar (bosh)*



■ *Qo'y va echkilar (bosh)*



■ *Parrandalar jami (ming boshda)*




Fermer xo'jaliklari faoliyati to'g'risida

2019 yil 1 yanvar xolatiga viloyatda 10142 ta fermer xo'jaliklari faoliyat yuritib g'alla yetishtirish yo'nalishida 790 ta (eng ko'p Yangiqo'rg'on tumanida 333 ta), paxta yetishtirish yo'nalishida 3105 ta (eng ko'p Pop tumanida 538 ta), sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish yo'nalishida 251 ta (eng ko'p Uchqo'rg'on tumanida 67 ta), meva va rezevorlar yetishtirish yo'nalishida 4448 ta (eng ko'p Yangiqo'rg'on tumanida 1346 ta), uzum yetishtirish yo'nalishida 672 ta (eng ko'p Yangiqo'rg'on tumanida 293 ta), chorvachilik yo'nalishida 299 ta (eng ko'p Kosonsoy tumanida 40 ta), parrandachilik yo'nalishida 73 ta (eng ko'p Kosonsoy tumanida 24 ta), ipak qurti ko'paytirish yo'nalishida 78 ta (eng ko'p Yangiqo'rg'on tumanida 27 ta), asalarichilik yo'nalishida 47 ta (eng ko'p Yangiqo'rg'on tumanida 10 ta), baliqchilik yo'nalishida 266 ta (eng ko'p Mingbuloq tumanida 72 ta), boshqa yo'nalishlarda 113 ta (eng ko'p Chust tumanida 18 ta) ni tashkil etmoqda.

01.01.2019 yil


Tumanlar	Fermer xo'jaliklari soni	Shundan Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha										
		G'alla yetish- tirish	Paxta yetishtirish	Sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish	Meva va rezevorlar yetishtirish	Uzum yetishtirish	Chorva- chilik	Parran- dachilik	Ipak qurtini ko'paytirish	Asalari ko'pay- tirish	Baliq- chilik	Boshqa yo'nalishlar
Mingbuloq	795	17	517	20	106	20	11	4	7	5	72	16
Kosonsoy	793	195	135	23	301	43	40	24	7	1	16	8
Namangan	544	14	226	9	212	10	28	2	14	1	19	9
Norin	466	4	241	6	163	8	17	6	0	0	9	12
Pop	903	4	538	37	193	20	33	1	2	8	56	11
To'raqo'rg'on	604	0	248	5	249	56	22	4	1	5	8	6
Uychi	543	18	251	24	139	39	35	5	3	6	22	1
Uchqo'rg'on	644	7	415	67	95	6	29	7	3	2	7	6
Chortoq	1206	70	150	23	855	46	29	7	1	2	10	13
Chust	1515	125	380	6	752	129	39	5	13	7	41	18
Yangiyo'rg'on	2077	333	0	31	1346	293	13	6	27	10	5	13
Namangan sh	52	3	4	0	37	2	3	2	0	0	1	0
Viloyat jami	10142	790	3105	251	4448	672	299	73	78	47	266	113



2019 yil 1 yanvar xolatiga 10142 ta fermer xo'jaliklari faoliyat yuritib ular tomonidan yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3576,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 26,8 %ni tashkil etdi.

Hosil yig'imi. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida fermer xo'jaliklar tomonidan 349,4 ming tonna jami don, shundan 323,4 ming tonna boshoqli don ekinlari ishlab chiqarilib, shu jumladan 322,9 ming tonnasi bug'doy, 30,6 ming tonna kartoshka (2017 yilga nisbatan 46,9 %ga kam), 314,1 ming tonna sabzavot (20,8 %ga kam) yig'ib olindi, 3,6 ming tonna poliz ekinlari (21,9 %ga kam), 24,5 ming tonna meva va rezavorlar (2,9 %ga kam) va 153,1 ming tonna uzum (8,9 %ga kam) etishtirildi.

2019 yilning 1 yanvar holatiga fermer xo'jaliklarida 24,4 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 9,0 ming bosh sigir, 25,4 ming bosh qo'y va echkilar, 449 bosh ot, 2174,9 ming bosh parrandalar mavjud. 2018 yilning 1 yanvar holatiga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 0,8 %ga, shu jumladan sigirlar 0,4 %ga, qo'y va echkilar 5,6 %ga kamaydi, parrandalar soni esa 6,8 %ga ko'paydi.



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 69-227-84-82
• 69-227-84-83